

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONSZAMONAVIY TEXNOLOGIYALI TIBBIYOT:
TEXNOLOGIYALAR VA SUNIY INTELEKTLAR SOG'LIQNI SAQLASHDA
YANGI IMKONIYATLAR YARATMOQDA**Mirzamahmudova Nigina Normurodovna***SamDCHTI Kechki fakulteti**Filologiya va tillarni o'qitish(ingliz tili) yo'nalishi**2-bosqich 2324-guruh talabasi**normurodovnanigina@gmail.com**+998937986939*

Annotatsiya. Hozirda zamonaviy texnologiyalar kun sayin tez sur'atda rivojlanib bormoqda. Bu esa o'z o'zidan uni turli sohalarda qo'llanilishiga olib keladi. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektning tibbiyat sohasidagi ahamiyati, ularning diagnostika, davolash va bemorlarni kuzatish jarayonlariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada statistik ma'lumotlar va misollar orqali texnologiyalarning sog'liqni saqlashda qanday o'zgarishlar keltirayotgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, tibbiyat, diagnostika, robotlashtirish, katta ma'lumotlar, bemorlar, telemeditsina, sun'iy intellekt.

Kirish. Zamonaviy tibbiyat texnologiyalar rivoji bilan o'zining yangi bosqichiga ko'tarilmoqda. Sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data), robotlashtirilgan tizimlar va telemeditsina kabi innovatsion yondashuvlar sog'liqni saqlashni aniqroq, samaraliroq va arzonroq qilish imkonini bermoqda. Ushbu texnologiyalar bemorlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish, jarrohlik jarayonlarini optimallashtirish va tashxis qo'yishda inqilobiy yutuqlarni taqdim etmoqda.

Sun'iy intellekt diagnostika sohasida o'zining aniq va tezkor ishlash qobiliyatini isbotladi. Masalan, AI yordamida rentgen va MRT natijalarini tahlil qilishda o'rtacha xatolik darajasi 2-3% gacha kamaygan. IBM kompaniyasining **Watson Health** tizimi onkologik kasalliklarni aniqlashda shifokorlardan ko'ra tezroq ishlash imkoniyatini namoyish etdi. [2]

Tibbiyat sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ijobiy natijasi yuqorida ta'kidlab o'tilgan ma'lumotlar orqali isbotlash mumkin. MRT bu inson miyasining faoliyatini o'r ganuvchi qurilma. Biz bosh miya faoliyatini faqatgina zamonaviy qurilmalar hamda texnologiyalar orqali o'rgana olamiz. Shuning uchun ham zamonaviy texnologiyalar tibbiyat sohasida muhim rol o'ynaydi.

2023-yilgi tadqiqotlarga ko'ra, AI-diagnostika tizimlaridan foydalangan klinikalarda aniqlangan kasalliklarning 87% holati davolashda muvaffaqiyatli bo'lgan. [5]

Hozirgi kunda kasalxonalarda murakkab bo'lgan jarrohlik amaliyotlarini robotlashtirish borasida ishlar olib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida ijobiy natijalar



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'rsatyapti desak adashmagan bo'lamiz. Misol uchun, Da Vinci nomli robot tizimi orqali minimal invaziv operatsiyalar o'tkazilmoqda. Bu texnologiyalar orqali jarrohlarning qo'llari yetib borishi qiyin bo'lgan joylarda ham jarrohlik amaliyotlarini o'tkaza olamiz.

2022-yilda AQShda o'tkazilgan 1,5 million jarrohlik amaliyotining 20% dan ko'prog'i robotlar yordamida bajarilgan. [3]

Telemeditsina pandemiya davrida o'zining zarurligini isbotladi. Bu texnologiya bemorlarga shifokor bilan masofadan muloqot qilish va davolanish imkonini yaratdi. Chekka hududlarda yashovchilar endi diagnostika va maslahat olish uchun shahar klinikalariga borishiga hojat qolmayapti. Bundan tashqari biz bu orqali shifoxonalarda shifokorlar qabuliga navbat olishimiz ham mumkin. Aynan telemeditsina bizning yurtimizda ham rivojlanayotgani biz uchun juda foydalidir.

Jahon sog'lijni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda dunyo bo'ylab telemeditsina xizmati foydalanuvchilari soni 1,2 milliardga yetgan. [1]

Katta hajmdagi tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish, bemorlarni topshirgan analizlariga binoan ularga tashxis qo'yish shifokorlar uchun ko'p vaqt olishi hech kimga sir emas. Aynan shu ishlar uchun ishlab chiqarilgan Big Data tomonidan amalga oshirilyapti. Biz bu orqali katta hajmdagi tibbiy ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qila olamiz va bu sog'lijni saqlash tizimida samaradorlikni oshirishga katta hissa qo'shyapti desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hindistondagi "Aarogya Setu" ilovasi COVID-19 ning tarqalishini kuzatish va nazorat qilishda katta ma'lumotlardan foydalangan. [4]

Hozirda insonlar o'z sog'liqlarini kuzatib turish uchun aqli kurilmalar, soatlar, fitness trekkerlar va boshqa bir qator zamonaviy gadgetlardan foydalanyapti. Bu kurilmalar ularga yurak urishi, qon bosimi va boshqa bir nechta muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish imkoniyatini bermoqda. Bundan tashqari aqli soatlar sizga bir kunda necha lirt suv ichishingizni ham eslatib tura oladi. Bu esa sizni sog'lig'ingizni yaxshilsh uchun juda muhimdir.

Aqli sog'lijni kuzatish qurilmalari bozorining hajmi 2025-yilga kelib 100 milliard dollarga yetishi proqnoz qilinmoqda. [6]

Texnologiyalar va sun'iy intellekt tibbiyat sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu nafaqat diagnostika va davolash sifatini oshirishga yordam bermoqda, balki bemorlar va shifokorlar o'rtasidagi muloqotni yaxshilamoqda. Robotlashtirilgan jarrohlik va aqli kurilmalar sog'lijni boshqarishni osonlashtirsa, katta ma'lumotlar epidemiyalarni oldindan aniqlashda samarali vositaga aylanmoqda. Zamonaviy tibbiyat texnologiyalari keljakda sog'lijni saqlashning barcha sohalarida yangi ufqlar ochishi kutilmoqda. Shu sababli, bu yo'nalishdag'i tadqiqot va investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.



1. World Health Organization (WHO). (2021). Telemedicine: Opportunities and Developments in Member States.
2. IBM Watson Health. (2023). AI in Healthcare: Transforming Diagnosis and Treatment.
3. Statista. (2023). Global Telemedicine Market Size from 2019 to 2025.
4. Global Market Insights. (2023). Wearable Medical Devices Market Size, Share & Trends Analysis Report, 2023-2028.
5. World Economic Forum. (2023). How Artificial Intelligence is Changing Global Healthcare Systems.
6. Statista. (2023). Global Telemedicine Market Size from 2019 to 2025.

